

O'zbekistonda elektron hukumatni joriy etish va rivojlantirish holati

Bugungi kunda "elektron hukumat" tushunchasiga turli ta'rif va tavsiflar berilgan. Ba'zi manbalarda, elektron hukumat davlat xizmatlarini taqdim etish jarayonini avtomatlashtirish deb qaralsa, boshqalarida elektron hukumat, bu - fuqaro, biznes vakillari, davlat organlari va tashkilotlarga davlat xizmatlarini taqdim etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, deb ta'rif berilgan.

Umuman olganda, elektron hukumat, bu - raqamli texnologiyalar, Internet va zamonaviy ommaviy axborot vositalari asosida davlat xizmatlarini taqdim qilish jarayonini, fuqarolarni va boshqaruvni ichki va tashqi o'zaro munosabatlarda o'zgartirishlar vositasida ishtirokinidomiy optimallashtirishdir. Elektron hukumat aholiga, tadbirkorlarga va davlat organlariga ko'rsatilayotgan davlat xizmatlarini taqdim qilishni osonlashtiradi, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarishlari uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi, ularning texnologik yangiliklardan xabardorligini oshiradi va davlat boshqaruvidagi ishtirokini osonlashtiradi.

Elektron hukumat quyidagi asosiy modullardan (tizimlardan) iborat:

- G2C (Government to Citizens) — Hukumat-fuqarolarga
- G2B (Government to Business) — Hukumat -biznesga
- G2G (Government to Government) — Hukumat –hukumatga

"Elektron hukumat" ning yakuniy maqsadi interaktiv xizmatlarini taqdim etishning imkoniyatlarini yanada yaxshilashga qodir bo'lgan mukammal elektron davlat boshqaruv apparatini yaratishdan iborat.

"Elektron hukumat" joriy etilgach, davlat organlari faoliyatining shaffofligi va ochiqligi ancha ortadi, davlat organlar xizmatlaridan foydalanish kengayadi va osonlashadi, ularni alohida fuqarolarga taqdim etish imkoniyati vujudga keladi, fuqarolarni siyosiy jarayonlarga va davlat boshqaruviga jalb etish imkoniyati yuzaga keladi, axborotlardan foydalanish va ularni almashish tezlashadi, davlat xizmatlarini aholi va biznes vakillariga taqdim etish optimallashtiriladi, fuqarolarni o'z-o'ziga xizmat qilish imkoniyati paydo bo'ladi, shu bilan birga, barcha foydalanuvchilarga davlat xizmatlarini taqdim etish bilan bog'liq boshqa afzalliklar va qulayliklarga taqdim etiladi.

O'zbekistonda ham dunyoning boshqa mamlakatlari kabi elektron hukumatni shakllantirish va joriy etishga katta e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada kengroq joriy qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2012 yil 21 martdagi PQ-1730-son qarori hamda ushbu qaror bilan tasdiqlangan "2012-2014 yillarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada keng joriy etish va rivojlantirish dasturi"ni amalga oshirish bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Ushbu qarorda 2012-2014 yillar mobaynida O'zbekistonda AKT sohasini, shu jumladan "elektron hukumat"ni rivojlantirishning asosiy vazifalari belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2013 yil 27 iyundagi PQ-1989-son qarori respublikamizda elektron hukumatni joriy etish va yanada rivojlantirish yo'lida muhim turtki bo'ldi. Mazkur qaror bilan mamlakatimizda "elektron hukumat" tizimini joriy etish va rivojlantirish bo'yicha bir qator loyihalar va chora-tadbirlar belgilandi, ularni amalga oshirish mexanizmlari va muddatlari aniqlandi. Shu bilan birga, Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirishning Kompleks dasturini amalga oshirishni muvofiqlashtiruvchi Respublika komissiyasi tashkil qilindi. Bundan tashqari, davlat organlarining oldiga ularning funktsiya va vazifalarini operativ va sifatli bajarilishini ta'minlash maqsadida axborot tizimlarini yaratish va o'zaro integratsiya qilish, davlat organlari faoliyatini avtomatlashtirish kabi bir qator muhim masalalar qo'yildi.

Shuningdek, yuqoridagi hujjatga asosan O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalarida davlat qo'mitasidagi 2 ta yangi markaz - "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish markazi va Axborot xavfsizligini ta'minlash markazlarini tashkil etildi. Ushbu markazlar oldiga mamlakatimiz axborot resurslari, tizim va tarmoqlarini jadal rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta'minlashdek muhim maqsad va vazifalar qo'yildi.

"Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish markazi faoliyati mamlakatimizda davlatning aholi va tadbirkorlik subektlari bilan elektron hamkorlik tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Davlat organlarida foydalaniladigan ma'lumotlar bazasi va axborot resurslarini loyihalashtirish, ishlab chiqish va birlashtirish mexanizmini nazarda tutadigan ushbu tizimni shakllantirishga yagona texnologik yondashuvni ta'minlaydigan mazkur markaz bu boradagi jahon tendensiyalarida hamda xorijiy mamlakatlarda tajribasini tahlil va tadqiq etadi, "elektron hukumat" tizimini rivojlantirish jarayonida tadbirkorlik subektlari va aholiga vaqt va mablag'ni tejagan holda sifatli davlat xizmatlari ko'rsatish, yangi-yangi xizmatlarni elektron ravishda o'tkazish kabi vazifalarni hal etadi.

Axborot xavfsizligini ta'minlash markazining asosiy maqsadi esa "elektron hukumat" tizimi ma'lumotlar bazasi, resurslari va axborot tizimlarini kompleksining axborot xavfsizligini

ta'minlash, davlat organlarining tegishli resurs va tizimlarining axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishga ko'maklashish, "elektron hukumat" tizimining axborot xavfsizligini ta'minlash sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani rivojlantirish, shuningdek, milliy internet segmentini takomillashtirish borasida ishlarni amalga oshirishdan iborat.

2013 yilning 1 iyulida respublikamizda "elektron hukumat" tizimining eng muhim vositalaridan biri bo'lgan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini ishga tushirildi (www.my.gov.uz). Yagona portalning shiori "Xizmatlar yangi qiyofada" deb nomlanib, uning ma'nosi real vaqt rejimida foydalanuvchilar uchun interaktiv davlat xizmatlarini yagona nuqta orqalitaqdim etishni anglatadi.

Bugungi kunda Yagona portal orqali foydalanuvchilarga 220dan ortiq xizmatlar taqdim etilmoqda.

Yagona portal O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013yil 14 fevraldagi PF-1920-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Obod turmushyili" Davlat dasturiga hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatishni hisobga olgan holda Internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining Hukumat portal faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2012yil 30 dekabrda 378-son qaroriga asosan yaratilgan.

Yagona portalda tadbirkorlik sub'ektlari va aholi uchun yilboshidan 30 ta yangi xizmat va servislar ishga tushirildi.

Hozirda foydalanuvchilar, asosan tadbirkorlik sub'ektlari Yagona portal orqali quyidagi xizmatlardan foydalanishlari mumkin:

- tekshirishlar reja-jadvalidan elektron ko'chirma olish;
- tashqi savdo operatsiyalari yagona elektron axborot tizimida tashqi savdo shartnomalarini bo'yicha ma'lumotlarni ro'yxatdan o'tkazish;
- tadbirkorlik sub'ektlari uchun ularni gaz ta'minlash tarmoqlariga ulanishlari uchun texnik shartlarni taqdim etish uchun arizalarni elektron ravishda taqdim etish
- "SMS-To'lov" to'lov tizimi orqali ba'zi turdagi xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish;
- tadbirkorlik sub'ektlari uchun to'lov terminallari bilan ta'minlash, mahalliy avtotransport vositalarini xarid etish uchun arizalarni elektron ravishda taqdim etish;

- faoliyatningba'zi turlari uchun litsenziyalar va ruxsatnomalarni olish uchun arizalarni taqdimetish va h.k.

2014 yilning 1 oktyabrida Yagona portalda tadbirkorliksub'ektining kabineti ishga tushirildi. Ushbu kabinet orqali tadbirkorliksub'ektlari turli soliq, statistikava boshqa turdagi hisobotlarnishakllantirishlari va yuborishlari, turli to'lovlarni amalga oshirishlari,turli ma'lumotlarni olishlari va boshqa turdagi interaktiv davlat xizmatlaridanfoydalanishlari mumkin. Respublikamizda "elektronhukumat"ni yanadarivojlantirish va takomillashtirish, interaktiv davlat xizmatlarinitakomillashtirish maqsadida vazirlik va idoralar bilan hamkorlikdatadbirkorlik sub'ektlari uchun quyidagi xizmatlarni joriy etish uchunchora-tadbirlarni ishlab chiqish topshirilgan:

- mutassaditashkilotlar bilan birgalikda yer uchastkalarini tanlash bo'yicha materiallarnikelishish uchun elektron arizani taqdim etish, shuningdekqurilish sohasidaruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish uchun ariza taqdim etish;
- ishlabchiqariluvchi va olib kirilayotgan mahsulotni Milliy sertifikatziya tizimidansertifikatsiyadan o'tkazish uchun elektron arizani taqdim etish;
- tovarva mahsulotlarni vaqtinchalik olib kirish (olib chiqish) uchun ruxsatnoma olishuchun elektron ariza taqdim etish;
- reeksportbojxona rejimida tovarlarni joylashtirish uchun ruxsatnomani olish uchunelektron ariza taqdim etish va h.k.